NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-9]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

YOZUVCHI TARJIMAI HOLINI O‘ RGATISH JARAYONIDA GEOGRAFIK MATERIALLAR VA TASVIRIY SAN’AT ASARLARIDAN FOYDALANISH USULLARI

Abdullayev Komiljon Abdug‘ anievich,
pedagogika fanlari doktori, dotsent.
Namangan davlat universiteti, O‘ zbekiston.
E-mail: komiljon.abdullayev.1961@mail.ru
Tel.: + 99890: 214-77-33

Annotatsiya: *Maqolada yuqori sinf adabiyot darslarida yozuvchi tarjimai holini o‘ rgatish jarayonida geografik materiallar va tasviriy san’at asarlaridan foydalanishning o‘ rni, samarali usullari ko‘ p yillik amaliy tajribalar asosida yoritilgan.*

Kalit so‘ zlar: *tarjimai hol, fanlararo integratsiya, joy nomlari, geografik xarita, tasviriy san’at, informatika, sharh, rasm-slayd.*

МЕТОДЫ ИСПОЛЗОВАНИЯ ГЕОГРАФИЧЕСКИХ МАТЕРИАЛОВ И ПРОИЗВЕДЕНИЙ ИЗОБРАЗИТЕЛНЫХ ИСКУССТВ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ АВТОБИОГРАФИЙ ПИСАТЕЛЕЙ

Аннотация: *В стате раскрывается рол эффективного исползования географических материалов и произведений изобразителного искусства в процессе преподавания биографии писателя на школных уроках литературы, эффективные методики, основанные на многолетнем практическом опыте.*

Ключевые слова: *биография, междисциплинарная интеграция, топонимы, географическая карта, изобразителное искусство, информатика, комментарий, фото-слайд.*

METHODS FOR USING GEOGRAPHIC MATERIALS AND FINE ARTS IN THE PROCESS OF TRAINING AUTOBIOGRAPHY WRITERS

Abstract: *The article reveals the role of the effective use of geographical materials and works of fine art in the process of teaching the biography of a writer in school literature lessons, effective methods based on many years of practical experience.*

Keywords: *biography, interdisciplinary integration, place names, geographic map, fine arts, informatics, commentary, photo slide.*

Yuqori sinf adabiyot darslarida shoir va yozuvchilar tarjimai holini o‘ rgatish – ta’lim va tarbiya ishidagi eng muhim vosita, ham ma’rifiy, ham ta’limiy, ham tarbiyaviy ahamiyatga molik bo‘ lgan masalalardan biri hisoblanadi.

Buyuk shaxslar – taniqli so‘ z san’atkorlarining tarjimai holini o‘ rgatish – ulardagi beqiyos ma’naviy boylik, iste’dod, mehnatsevarlik, xalqparvarlik, vatanparvarlik, fidoyilik, rostgo‘ ylik, kamtarlik, himmat, saxovat, g‘ amxo‘ rlik, adolatparvarlik kabi go‘ zal fazilatlar bilan o‘ quvchilarni tanishtirish, ularda milliy iftixor, g‘ urur hislarini shakllantirish demakdir.

Taniqli adibimiz Maqsud Shayxzoda buyuk kishilar va buyuk qalam egalarining ilm-fan taraqqiysi uchun olib borgan kurashlari hamda ularning hayot yo‘ li yoshlarimizni tarbiyalash va voyaga etkazishda juda muhim vosita ekanligini uqtirib, bu dalillarni yoshlarimiz ongiga singdirish vazifasini quyidagicha ta’kidlagan эdi: «Xorazmiy kim? Ibn Sino kim? Ulug‘ alloma kim? – degan savollarni qo‘ yib, o‘ zlari:»agar har bir xalq o‘ z ulug‘ ajdodlarini e’zozlab, ularning qadriga yeta bilmas эkan, bunday el istiqboldan ham mahrum bo‘ lishi mumkin», – deb javob bergandilar. Yana domla «biz – madaniyat arboblarining, ayniqsa, yozuvchilarning eng muhim vazifalaridan biri shu ulug‘ ajdodlarimiz obrazlarini xoh kitoblar orqali, xoh sahna asarlari orqali xalqqa namoyish qilishimiz ham farz, ham qarz, yo‘ qsa biz ularga loyiq avlod bo‘ lolmaymiz» [2, 18].

Darhaqiqat, ulug‘ ajdodlarimiz boy tarixini, adabiy merosini yosh avlodga etkazish biz, pedagoglarning ham, asosiy burchimiz ekanligini chuqur his etgan holda, uning tizimli o‘ rgatilishini ta’minlash, o‘ qitishning xilma-xil samarali usullaridan foydalanish maqsadga muvofiqligi va shundagina kutilgan natijalarning salmoqdorligiga erishish mumkinligini alohida ta’kidlashni istar edik.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, biz ham adabiyot darslarida, xususan, yozuvchi tarjimai holini o‘ rgatish jarayonida fanlararo integratsiya vositasi sifatida «Yer yuzasining manzarasini ifodalagan», «surati arz», «yetti iqlim», «Kitob al-masolik va-l-mamolik» («Mamlakatlar va masofalar kitobi»), «jug‘ rofiya» kabi atamalar bilan nomlanib kelingan GEOGRAFIYA (yun. geo... va ... grafiya) [7: 2, 626] fani materiallardan, jumladan, joy nomlari – toponimlar va xaritalardan (shuni alohida ta’kidlashni istar edikki, adabiyot darsining barcha bosqichlari: kirish, yozuvchi yoki shoir hayoti va ijodini o‘ rgatish, matn ustida ishlash, adabiy asar tahlili, yakunlovchi, takrorlash mashg‘ ulotlari va sinfdan tashqari tadbirlar jarayonida ham bu kabi manbalarni o‘ rinli, samarali qo‘ llay olish va ta’kidlanilayotgan muammo yuzasidan alohida izlanishlar olib borish yechimini kutayotgan vazifalardan biridir) va tasviriy san’at asarlaridan foydalanish haqidagi fikrlarimizni o‘ rtoqlashishni maqsadga muvofiq deb topdik.

Buyuk iste’dod sohiblari: Imom al-Buxoriy (810-870), Abu Rayhon Beruniy (973-1048), Abu Ali ibn Sino (980-1037), Mahmud Koshg‘ ariy (XI asr), Yusuf Xos Hojib (XI asr), Ahmad Yugnakiy (XII asr oxiri XIII asr boshlari), Bahouddin Naqshband (1318-1389), Mirzo Ulug‘ bek (1334-1449), Alisher Navoiy (1441-1501), Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530), Boborahim Mashrab (1640-1711), Muhammad Aminxo‘ ja – Muqimiy, Zokirjon Xolmuhammad o‘ g‘ li – Furqat (1858-1909), Hamza Hakimzoda Niyoziy (1889-1929) kabi ijodkorlarning tarjimai holini o‘ rgatish jarayonida geografik manbalarga murojaat etish ehtiyoji mavjudligi va ulardan foydalanish dars samaradorligini oshirish uchun xizmat qilishini hamkasb-mutaxassislarimiz ta’kidlashayotganligini ham alohida eslatib o‘ tishimiz lozim deb hisoblaymiz.

Ko‘ pgina ulug‘ so‘ z san’atkorlari o‘ zlarining nisba va taxalluslarini kindik qonlari to‘ kilgan yurt bilan bog‘ lab, uning nomini dunyoga ma’lumu mashhur qilganliklariga e’tibor qaratish ham o‘ quvchilarning bilimini boyitishga xizmat qiladi. Dalillarga murojaat qilaylik:

Imom al-Buxoriy (810-870), Mahmud Koshg‘ ariy (qashqarlik, XI asr), Yusuf Xos Hojib (Bolasog‘ uniy, XI asr), Ahmad Yassaviy (1041-1167), Davlatshoh Samarqandiy (1435-1495), Xorazmiy (XIV asr), Hofiz Xorazmiy (asl ismi Abdurahim, (XIV asrning II yarmi Xorazm – XV asrning 30-40 yillari Sheroz), Chimyoniy, Huvaydo – Xo‘ janazar Huvaydo (vafoti 1780/1781), Munis Xorazmiy – Amir Avazbiy o‘ g‘ li Shermuhammad (1778-1829), Komil Xorazmiy (asl ismi Pahlavon Niyoz Muhammad, 1825-1899), Majzub Namongoniy – Muhamad Aziz Mulla Hasan o‘ g‘ li Majzub Namongoniy (XVIII asr), Fazliy Namogoniy (asl ismi Abdulkarim, XVIII asrning 2-yarmi XIX asr boshlari), Chustiy (asl ismi Xo‘ jaev Nabixon, 1904-1983), Abulqosim Tusiy – Firdavsiy (934-1030), Ro‘ dakiy – Abu Abdulloh Ja’far Muhammad Ro‘ dakiy – «Odamush-shuaro» – «Shoirlarning Odam Atosi», Nizomiy Ganjaviy (asl ismi, sharifi – Abumuhammad Ilyos ibn Yusuf ibn Zakiy Muayyad, 1141-1209), Abdurahmon Jomiy (1414-1492), Yaminiddin Abul Hasan Amir Xusrav al-Dehlaviy (1253-1325), Shota Rustaveli (XII asr) kabi ajdod va allomalarning tabarruk nomlarini faxr bilan tilga olishimiz va ularning ro‘ yxatini yana davom ettirishimiz mumkin.

Istiqlol sharofati bilan azaliy va abadiy qadriyatlarimiz qatori islom olamining yirik mutafakkiri, buyuk muhaddis, «muhaddislar imomi»,»hadis ilmining sultoni» sifatida tanilgan mashhur alloma imom al-Buxoriy (asl ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy) (umumiy o‘ rta ta’lim maktablarining adabiyotdan o‘ quv dasturi asosida tuzilgan rejada 9-sinfda uning hayoti va ijodini o‘ rganish uchun 3 soat vaqt ajratilgan [5, 129-145]) ning o‘ lmas merosi el-yurti bag‘ riga qaytgani, xalqimiz ongu tafakkurini ravshan eta boshlagani, O‘ zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Buyuk muhaddis Imom al-Buxoriy tavalludining 1225 (hijriy hisobda) yilligini nishonlash haqida»gi qarori (1997-yil, 29-aprel) asosida Samarqandda yubiley to‘ y-tantanalari bo‘ lib o‘ tgani, u abadiy qo‘ nim topgan Chelak tumanidagi Xartang qishlog‘ ida ulkan yodgorlik majmui ochilgani, «Imom al-Buxoriy va uning dunyo madaniyatida tutgan o‘ rni» mavzusida xalqaro anjuman o‘ tkazilgani, xotirasi abadiylashtirilgani, hayoti va ijodiga bag‘ ishlab bir necha tillarda kitob – albom, 2 qismli film (1995), «Hadis ilmining sultoni» nomli 4 qismli kino qissa (1998) yaratilgani; darslikdagi materiallarga asoslanib, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy ibratli hayot yo‘ li: «xonadoniga mehnatsiz topilgan biror dirham ham pul kirmagan» halol, diyonatli, pokiza, mehnatkash ota va onaning qo‘ lida tarbiyalangani, yoshligidan hadis ilmiga ko‘ ngil qo‘ ygani, o‘ n olti yoshida minglab hadislarni yod bilgani, yurtma-yurt, shaharma-shahar yurib ilm o‘ rgangani, mingdan ortiq ishonchli ulamodan hadis yozib olgani, ularning har birini chuqur tahlil qilgani, mehnatlarining samarasi sifatida yigirmadan ortiq, asar yozib qoldirgani, Buxoro amiri Xolid ibn Ahmad davrida o‘ z yurtiga sig‘ may, hayotining so‘ nggi yillarini Samarqand yaqinidagi Xartang qishlog‘ ida o‘ tkazgani haqida biografik ma’lumot berish jarayonida Kesh (arab manbalarida Kashsh, Kass, Kiss), Marv – («Avesto» da – Mouru), Makka, Madina, Balx, Hirot, Bag‘ dod, Basra, Nishopur, Shom, Sheroz kabi joy nomlariga duch kelamiz.

Buyuklik va mangulikning betakror timsoli, yuksak iste’dod egasi, mutafakkir shoir, olim, turkiy tilda shoh asarlar bitgan, birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov:»Agar bu ulug‘ zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir» [1, 47], – deya ta’riflagan bobomiz hazrat Mir Alisher Navoiy tarjimai holi, ma’naviy kamolotga erishish va o‘ zlikni anglashda bebaho xazina vazifasini o‘ tab kelayotgan shaxsi, adabiy merosi haqida fikr yuritganimizda ham (o‘ quv rejasiga ko‘ ra, 11-sinfda uning hayoti va ijodini o‘ rganish uchun 4 soat vaqt ajratilgan [4, 117-157]), Hirot, Xuroson, Movarounnahr, Sabzavor, Yazd, Sheroz, Mashhad, Balx, Astrobod, Niso,

Nishopur, Marv («Avesto» da – Mouru), Saraxs, Bistom, Bomiën (Bomiqon, Bomyanna) kabi joy nomlariga murojaat qilinishi tabiiydir.

Zahiriddin Muhammad Boburning qomusiy asari – «Boburnoma» da 365 tadan ortiq joy nomlarning tilga olinganligining guvohi bo‘ ldikki (o‘ quv rejaga ko‘ ra, 11-sinfda uning hayoti va ijodini o‘ rganish uchun 3 soat vaqt ajratilgan [4, 158-180]), bu muammoning o‘ rganilishi alohida tadqiqot ob’ekti bo‘ lishini alohida ta’kidlashni istar edik.

Xalq orasidada Shoh Mashrab, Devona Mashrab, Valiy Qalandar (Mahdiy, Zinda, Rindiy, Umam taxalluslari ham bor) nomlari bilan tanilgan Boborahimning o‘ ta ziyrak yoshligi, topqir va zukkoligi bilan ustozi Mulla Bozor oxundni lol qoldirishi, tasavvufiy bilimlarini oshirish uchun Qashqarga, Ofoq xoja huzuriga borishi va u yerdagi yetti yillik sinov va chiniqishlar, keyingi umri davomidagi 40 yillik darbadarona (iqtidorli o‘ quvchilar bilan hamkorlikda to‘ plangan shu davrlarni aks ettiruvchi rasmlar to‘ plami interaktiv doska orqali namoyish etib turiladi) sarguzashtlari (Namangan – Qashqar – Yorkent – Namangan – Xo‘ jand – Toshkent – Samarqand – Buxoro – Hindiston – Afg‘ oniston – Sheroz – Suriya – Shom – Rum – Sudan – Yaman – G‘ ulja ...), qazo hukmiga muvofiq, o‘ z ajalini izlab Balx shahriga borishi va 1711 (hijriy 1123)- yilda Mahmud Qatog‘ on hukmi bilan dorga osib o‘ ldirilishi haqida ma’ruza qilish davomida (o‘ quv rejasi ko‘ ra, 11-sinfda uning hayoti va ijodini o‘ rganish uchun 2 soat vaqt ajratilgan [4, 181-189]), Qashqar, Iyla (Ili, Ilo, yoki Ila), Xo‘ tan, Yorkent (qadimiy nomi Sakarao‘ l, xitoycha Shache), Balx, Xo‘ jand, Makka, Qobadiyon (Quvodiyon), Ishkentmish – Qunduz, Hindiston (hindcha Bharat), Afg‘ oniston, Sheroz, Suriya, Shom, Rum, Sudan, Yaman, G‘ ulja(Qulja) kabi joy nomlari haqida gapirmaslikning iloji yo‘ q.

Muhammad Aminxo‘ ja – Muqimiyning tarjimai holi ham (akademik litseylarning ijtimoiy-gumanitar fanlar va xorijiy filologiya yo‘ nalishidagi adabiyotdan chuqurlashtirilgan o‘ quv dasturi (Toshkent, 2018) asosida tuzilgan rejada shoir hayoti va ijodi, adabiy merosini o‘ rganish uchun 2 soat vaqt ajratilgan [6, 363-382]) uning «Sayohatnoma» asarida tilga olingan quyidagi joy nomlari bilan uzviy bog‘ liqligini ta’kidlash o‘ rinlidir:

O‘ ltarma, Do‘ rmancha, Bo‘ rbaliq, Oq yer, Roshidon, Zohidon, Oltiariq, Chimyon, Vodil, Qudash, Yayfan, Nursux, Beshariq, Rafqon, Konibodom, Yakkatut, Raboti, Tikka Rabot (xaritada ko‘ rsatilmagan), Isfara, Chorko‘ .

Zokirjon Xolmuhammad o‘ g‘ li Furqat 1859-yilda Qo‘ qonda savdogar oilasida tug‘ ilganligi, etti yoshida o‘ qishga borishi, sakkiz yoshida Fariddin Attorning «Mantiq ut-tayr» ini o‘ qishga tutinishi, Hofiz Sheroziy, Bedil, Navoiyni mutolaa qilishi, zamon hodisalari o‘ qishni tugatishga imkon bermagani, Zokirjon tog‘ asi bilan tirikchilik iziga tushishi, savdo ishlari bilan shug‘ ullanishi, xususiy darslar berishi, xattotlik, mirzolik qilishi, 80-yillarda shoir sifatida butun Farg‘ ona vodiysiga tanilishi, keyinchalik Marg‘ ilon (1886-1889), Toshkent (1889-1891), Samarqand, Buxoro (1891), chet ellardagi (1991-1909) hayoti va faoliyati (xronologik jadval ham tayyorlash mumkin) haqida hikoya qilinar ekan (akademik litseylarning ijtimoiy-gumanitar fanlar va xorijiy filologiya yo‘ nalishidagi adabiyotdan chuqurlashtirilgan o‘ quv dasturi (Toshkent, 2018) asosida tuzilgan rejada shoir hayoti va ijodi, adabiy merosini o‘ rganish uchun 2 soat vaqt ajratilgan [6, 383-391]), 30 tadan ortiq: Marv, Ashxabod, Krasnovodsk, Boku, Batumi, Istanbul, Bulg‘ oriya, Yunoniston, Iskandariya, Misr, Qohira, Bayrut, Bag‘ dod, Arabiston, Madina, Makka, Jidda, Yaman, Hindiston, Bombay, Haydarobod, Madras, Seylon, Dehli, Agra, Kashmir, Tibet, Xo‘ tan, Sintsyazin, Yorkent kabi joy nomlarining uchratilishi va ularni sharhlash ehtiyoji yuqori ekanligini kuzatdik.

Joy nomlari – toponimika xalqlarning tarixiy o‘ tmishi xususiyatlarini jonlantirishga, ularning joylashish chegaralarini belgilashga, tillarning o‘ tmishdagi tarqalish hududlarini, madaniy va iqtisodiy markazlar, savdo yo‘ llari va sh.k. geografiyasini tavsiflashga yordam beradi [7: 8, 501].

Taniqli geograf olim H.Hasanov joy nomlari o‘ rganilishining ahamiyatini quyidagicha ta’riflaydi: «Nomlarning o‘ z tarixi, xalq, qabila, tabiat, xo‘ jalik, hodisa va kashfiyotga mansubligi bor. Agar nomlar tarixi tilga kirsa, tog‘ lar va suvlarning xosiyati, o‘ simligu hayvonot turlari, savdo-sotiq, hunar-kasb, xazinalar, janglaru e’tiqodlarimizning hammasi ayon bo‘ ladi. «Yer bamisoli bir kitobdirki, unda insoniyat tarixi geografik nomlar bilan bitilgan» degan edi rus olimi N.I.Nadejdin. Demak, joy nomlarini tabiat, hayot va insoniyat ko‘ zgusi desa bo‘ lar эkan» [3, 3].

Aytish mumkinki, Vatanimiz, viloyatimiz, tumanimiz, shahrimiz va qishlog‘ imiz nomi, tarixi (har bir shaxs, jumladan, shoir va yozuvchilar ham o‘ z yurtining farzandi hisoblanadi)ni o‘ rganish va o‘ rgatish nafaqat geografiya fani o‘ qituvchilarning, balki barcha fan o‘ qituvchilarining ham mas’uliyatli burchi deb hisoblanishi lozim.

Yozuvchi tarjimai holini o‘ rganish darslarining tushunarliligini oshirish, joy nomlari bilan bog‘ liq so‘ zlarni oz bo‘ lsa-da, «tilga kiritish» – sharhlash uchun tarix, geografiya, adabiyotshunoslik fanlaridan olingan bilim va ma’lumotlarga murojaat qilish maqsadga muvofiqdir.

Biz shaxsiy tajribalarimiz asosida va turli fan o‘ qituvchilari, iqtidorli o‘ quvchilar hamkorligida imom al-Buxoriy (11 ta), Alisher Navoiy (15 ta), Zahiriddin Muhammad Bobur (365 ta), Boborahim Mashrab (18 ta), Muhammad Aminxo‘ ja – Muqimiy (20 ta), Zokirjon Xolmuhammad o‘ g‘ li – Furqat (30 ta) tarjimai holini o‘ rganish jarayonida uchragan geografik nomlar (jami 429 ta)ning ro‘ yxatini tuzdik, ularning bir qismi sharhini tayyorladik va mutaxassislar hukmiga havola etdik. To‘ plangan va dastlabki sinovlardan o‘ tgan manbalar asosida ko‘ rgazmali slayd-albom – uslubiy qo‘ llanma tayyorlash ustida izlanishlarimizni davom ettirmoqdamiz.

O‘ rganilayotgan muammoga doir adabiyotlar bilan tanishish jarayonida S.Qoraevning «Toponimika», «Geografik nomlar ma’nosi», «Geografik nomlar ma’nosini bilasizmi?», R.Musinning «So‘ z mag‘ zidan yer bag‘ riga», H.Hasanovning «Geografik nomlar siri», «Bobir sayyoh va tabiatshunos», T.Nafasovning «O‘ zbekiston toponimlarining izohli lug‘ ati», Z.Do‘ simovning «Xorazm toponimlari», N.Oxunovning «Joy nomlari ta’biri», E.Begmatov va N.Uluqovning «O‘ zbek onomastikasi terminlarining izohli lug‘ ati», «Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi», Abdulla Jabborning «Namangan viloyati» (Ixcham ma’lumotlar to‘ plami) kabi tadqiqotlarida joy nomlari bilan bog‘ liq juda muhim, ilmiy asoslangan, qiziqarli ma’lumotlar (joy nomlari bilan bog‘ liq va ular asosida paydo bo‘ lgan turli: tarix, geologiya, arxeologiya, ximiya, tibbiyot, texnika, transport, mahsulot, kiyim, hayvonot, o‘ simlik, suv, shamol, o‘ yin, kema, avtomobil sohalariga doir so‘ zlar, ularning izohi ham ko‘ rsatilgan) bayon etilganligining guvohi bo‘ ldik va ularning ayrimlarini barcha fan o‘ qituvchilari (dars va darsdan tashqari tadbirlarda o‘ rni bilan foydalanish maqsadida), o‘ quvchilar uchun ixtiyoriy tavsiya qilishni maqsadga muvofiq deb topdik.

Shoir yoki yozuvchi tarjimai holini o‘ rgatish darslarida joy nomlari bilan bog‘ liq so‘ zlarni sharhlash jarayonida axborot kommunikatsion texnologiyalari vositasida ularning elektron nusxalari va hozirgi kunda joylashgan geografik o‘ rnini ifodalovchi rasm-slaydlar ekranda namoyish etib boriladi, zarur dalillar o‘ quvchilarning daftarlari (bizning tavsiyamizga ko‘ ra, tajribali o‘ qituvchilar fanlararo integratsiyaga doir manbalarni qayd qilib borish uchun maxsus daftar yurilishini tashkil qilganliklarini ham eslatib o‘ tishni lozim topamiz)ga qayd qildiriladi. O‘ qituvchi mavjud sharoit, imkoniyat, shaxsiy mahoratdan kelib chiqib, audio-video, grafik, badiiy, tasviriy ko‘ rgazmalilik vositalaridan ham foydalanishi mumkin.

O‘ quvchilarning egallagan bilimlarini mustahkamlash, tasavvurlarini kengaytirish, xotiralarini mustahkamlash maqsadida geografik (shuningdek, maxsus tayyorlangan adabiy) xaritalardan foydalanish ham darsning mazmunini boyitish, to‘ ldirish, fanlararo integratsiyani yo‘ lga qo‘ yishning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi.

Xarita (yun. chartes – varaq yoki xat yoziladigan papirus), karta – Yer yuzasi, boshqa osmon jismlari yoki kosmik fazoning matematik aniq belgilangan, kichraytirilgan, umumlashtirilgan tasviri. Qabul qilingan shartli belgilar sistemasida ularda joylashgan ob’ektlar ko‘ rsatiladi [7: 9, 395].

Umumiy o‘ rta ta’lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar maktablari uchun alohida adabiy xaritalar chop etilmasligi bois, tajribali adabiyot fani o‘ qituvchilari bu vazifani geografiya fani o‘ qituvchilari bilan hamkorlikda amalga oshirishlari maqsadga muvofiqdir.

Mutaxassislar adabiy xaritalarni shartli ravishda ikki turga ajratish mumkinligini ta’kidlashgan:

1. Biografik. 2. Tarixiy.

Yozuvchining tug‘ ilgan, yashagan, sayohat qilib yoki boshqa sabab bilan borgan joylarini ko‘ rsatuvchi xarita adabiy-biografik xarita deyiladi. Bunday xaritalarga «Alisher Navoiy hayot yo‘ lining sxematik xaritasi (A.A. Semenov tuzgan va I.Sultonov to‘ ldirgan)», «Bobur tasavvurida Farg‘ ona», «Furqat yurgan yo‘ llar kartasi» kabilar (Boborahim Mashrab, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Is’hoqxon Ibratlarning ham biografik xaritasini yaratish ustida izlanyapmiz) ni misol sifatida ko‘ rsatish mumkin.

Adabiy-tarixiy xaritalarda badiiy asarda aks ettirilgan voqea va joylar tasvirlanadi. Bunday xaritalar qatoriga «Boburnoma»da tilga olingan yirik joylar kartasi», «Boburning tasavvurida Farg‘ ona vodiysi va tevaragi», «Boburnoma»da Farg‘ ona va Toshkent viloyatlari», «Bobur davrida Samarqand», «Boburnoma»da Movarounnahr», «Boburnoma»da Kobul va Hindiston»,»Boburning tarixiy merosi», «Muqimiyning «Sayohatnoma»sida ifodalangan joylar», ijodkor adabiyot fani o‘ qituvchilari tomonidan tayyorlangan «Turli fan o‘ qituvchilari hamkorligida tashkil etiladigan adabiy sayohatlar xaritasi» (bu ishni amalga oshirishda o‘ qituvchining izlanuvchanligi, intiluvchanligi, boshqa fan o‘ qituvchilari va o‘ quvchilarning o‘ zaro hamkorligini ta’minlay olishi juda katta ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligini alohida ta’kidlashni xohlar edik) kabilarni kiritish mumkin.

Yuqori sinf adabiyot darslarida fanlararo integratsiyani yo‘ lga qo‘ yish vositasi sifatida geografik materiallar va tasviriy san’at asarlaridan foydalanish darsning sifat va samaradorligini oshiradi, o‘ quvchilarning bilim va ko‘ nikmasini, ong va tafakkurini boyitadi, dunyoqarashini, tasavvurini kengaytiradi, mustahkamlaydi; dastur materiallarini puxta o‘ zlashtirishlariga yordam beradi, ijodkorlik qobiliyatini tarbiyalaydi, o‘ stiradi; egallagan bilimlarini amaliyotga tadbiq etish malaka va ko‘ nikmalarini takomillashtiradi, o‘ zaro hamkorlik muhitini shakllantiradi, o‘ z faoliyatini to‘ g‘ ri tashkil etish, fan yangiliklari bilan muntazam tanishib borish, mustaqil-ijodiy ishlash ko‘ nikmalarini rivojlantiradi; o‘ quvchilarning ona-Vatanga, shu yurtda kamol topgan ajdodlarimiz adabiy merosiga muhabbat, iftixor, milliy an’ana va qadriyatlarimizga sadoqat ruhida tarbiyalash uchun xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Каримов И. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. – 176 б. – Б. 47.
2. Мақсуд Шайхзода замондошлари хотирасида. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. – Б. 18.
3. Ҳасанов Ҳ. География номлар сири: Илмий-оммабоп таъриф. – Т.: Ўзбекистон, 1985. – 120б. – Б. 3.

4. To‘ xliyev B. Adabiyot [Matn]. 11-sinf: darslik-majmua. 1-qism. – Toshkent: «O‘ zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat nashriyoti, 2018. – 200b. – B. 117-188.

5. Йўлдошев Қ. Адабиёт: Умумий ўрта таълим мактабларининг 9-синфи учун дарслик. Қайта ишланган 4-нашри. – Т.: «Ўзбекистон» НМИУ, 2019. - 368б. – Б. 111-125.

6. Адабиёт (Мажмуа): Академик лицейларнинг 2-босқич ўқувчилари учун / Тузувчилар Б.Тўхлиев, Р.Мирсамиқова, О.Аметова. – Т.: Чўлпон номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2007. – Б. 383-391.

7. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2000-2005. – 1-,2-,3-,4-,5-,8-, 9-,10- ва 11-жилдлар.

8. Заҳириддин Муҳаммад Бобур энциклопедияси. – Т.: «Шарқ», 2014. – 744б. – Б. 128: II.

9. Султон, Иззат. Навоийнинг қалб дафтари: Буюк шоирнинг ҳаёти билан ижоди ўзининг ва замондошларининг тасвирида. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2010. – 376 б.

10. Ҳасанов Ҳ. Бобир сайёҳ ва табиатшунос. – Т.: Ўзбекистон, 1983. – 62б. – Б. 30.